

Kazakbaev Baxit Seyilbekovich<sup>1</sup> Bauaddinov Kamaladdin Karamaddinovich<sup>2</sup>

Impact Factor: 9.2

ISSN-L: 2544-980X

## Qoramollarda Brucellyoz Kasalligini Etiologiyasi Klinikasi Va Diagnostikasini Organish

(Kazakbaev Baxit Seyilbekovich<sup>1</sup>, Bauaddinov Kamaladdin Karamaddinovich<sup>2</sup>)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada qoramallarda uchraydigan muammolardan biri brucellyoz kasalliklari va kasallanishlarning katta foizi brucellyoz kasalliklariga to‘g‘ri kelishii (15-25%), ulardan asosan nafas olish, ovqat hazm qilish, yurak – tomir tizimlari va tayanch – harakat apparati va jinsiy sistema kasalliklarini kirishi, bu holat esa veterinariya mutaxassislarini alohida tashvishga solishi, chunki bu patologiyalar hayvonlarning chidamliligini, kuchini va tezligini sezilarli ravishda pasaytiradi va tabiiyki ularning xizmat sifatlariga salbiy ta’sir etishi haqida malumotlar berilgan.

**Kalit so`zlar:** brucellyoz, epizootologik, holat, kassalik, serologik, klinik, morfologik, davolash, bakteriya

### Kirish: Brutsellyoz

(Brucellosis) - surunkali kechadigan infektsion kasallik bo’lib, homila tashlash, yo’ldoshning ushlanib qolishi, endometrit, suyak-bo’g’im apparatining yallig’lanishi va erkak jinsli hayvonlarda orxit (moyakning yallig’lanishi) hamda epididimit (moyak ortig’ining yallig’lanishi) bilan namoyon bo’ladi. Odamlar brutsellyozni kasal hayvonlardan yuqtirib olishadi. Parrandalar brucellosga chidamlidir.

Qo’zg’atuvchisi: -Brucella bakteriyasining 6 xil turi bo’lib, Br.abortus, 9 ta biovariantga ega; Br. melitensis – 3; Br.suis – 4; Br. Ovis, Br. neotomae va Br. canis – 1. Brucellalar polimorf bo’lib, kokksimon, tayoqchasimon shaklli, spora hosil qilmaydi va juda mayda (0,3-2,5 mkm). Mikroblar harakatsiz, gramm manfiy, anilin bo’yoqlari bilan yaxshi bo’yaladi, ba’zi shtammlari kapsula hosil qiladi. Zardobli muxitlarda yaxshi o’sadi. Brucellalar chuqur o- antigeni va yuzaki s –antigeniga ega. Brucella bakteriyasi kimyoviy hamda fizikaviy omillarga chidasizdir. 600 C da 30 daqiqada, 700 C da 5-10 daqiqada, 1000 C da esa shu payt o’ladi. Achigan va sovutilgan sutda va qaymoqda 4-7 kungacha, kiyimda 14 kungacha, pishloqda, go’shtda, tuzlangan terida – 67 kungacha, tuzlangan go’shtda 3 oygacha, muzlatilgan go’sht va junda 5 oygacha, tuproqda, suvda, go’ngda va dag’al hashakda 4 oygacha saqlanaib, chirindida tezda nobud bo’ladi. Quyosh nuri 4-5 soat ichida, kreolin, fenol, 1% li formaldegid eritmalar 1 soat ichida, 5 %li yangi so’ndirilgan ohak 2 soat ichida brucella bakteriyasini o’ldiradi

### 1-Jadval

#### Brusellyoz kasalliklarni diagnostik tekshirish haqidagi kalendar reja.

Tartib raqami	O’tkazilgan tadbirlar	Bajargan vaqtি	Masul shaxs (javoblar)	Kim nazorat qildi	Eslatma (Izoh)
1.	Brusellyoz kasalligi serologic tekshirish	Fevral-mart oylari	Tuman veterinariya va shorvashilikni rivojlantirish bo’limi uchastka mudiri	Tuman veterinariya va shorvashilikni rivojlantirish bo’limi	60 bosh yirik shoxli qoramollar dan qon namunalari olindi
2.	Brusellyoz kasalligi	Fevral-mart	Tuman veterinariya va shorvashilikni	Tuman veterinariya va shorvashilikni	20 bosh mayda shoxli mollardan qon

<sup>1,2</sup> Qoraqalpog’iston qishloq xo’jaligi va agrotexnologiyalar instituti, katta o’qituvchisi

	serologic tekshirish	oylari	rivojlantirish bo'limi	rivojlantirish bo'limi rivojlantirish bo'limi	namunalari olindi
--	----------------------	--------	------------------------	--------------------------------------------------	-------------------

### Brucellyoz kasalligini etiologiyasi klinikasi va diagnostikasi

Davolashning samarasi kasallik alomatlarining pasayishi hamda gematologik ko'rsatkichlarning normallashish natijalari bo'yicha aniqlanadi.

Hayvonlar muntazam serologik va klinik tekshirib turiladi, tana harorati o'lchanadi. Har bir guruh hayvonlarda tekshirish usullari kasallikning darajasiga qarab tanlanadi. Qoramollardagi brusellyoz kassaliklarga o'z vaqtida ertachi tashxis qo'yish, etiologiyasini aniqlash maqsadida barcha kasallangan hayvonlarning soni, kasallikning tarqalish darajasi aniqlanadi.

Kasallikning barcha bosqichlarda qon (prova) namunalari olinib, namuna tarkibidagi brusella soni (rangli brucellyoz antigeni bilan yordamida), namunadan tayyorlangan plastinkali aggliytinaciya reakciyasi(PAR) natiyasi va zararlanish darajasi aniqlanadi. Ishning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda oldi olingan zarar, veterinariya tajribalari uchun xarajatlar va xarajatlar qoplami, klinik va laboratoriya tekshirish natijalari hisobga olinadi.

Kasallangan qoramollarni tekshirish va davolashda laboratorik serologik tekshirish usullarini qo'llash natijalari, mollarning brusellyoz kassaliklarining ertachi bosqichlarda samarali davolash usulini tanlashga imkon beradi, olingan ma'lumotlar klinik o'qitish jarayonida qo'llanishi mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Salimov H. S., Qambarov A. A. "Epizootologiya" darslik. Samarkand, 2016..
2. Burawnov M. P. va boshqalar., "Jeke epizootologiya" darslik. T, 2010.
3. Burawnov M. P. va boshqalar., "Epizootologiya va yuqumli kasalliklar"
4. O'quv qullanma. T, 2006.